

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2024 yil yanvar-iyun

	<i>Mlrd so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot		
Sanoat mahsuloti		
Iste'mol tovarlari		
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	11 757,6	103,6
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar		
Qurilish ishlari		
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)		
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.-km)		
Chakana savdo tovar aylanmasi		
Xizmatlar, jami		
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.) ¹⁾		
Eksport		
Import		
Saldo (+,-)		

* Ishlab chiqarish

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2025- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

2025- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 11 757,6 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning shu davriga nisbatan 3,6 % ga o‘ydi. Jumladan, dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 11 404,3 mlrd so‘mni (o‘rish sur‘ati 103,5 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 0,1 mlrd so‘mni (100,3 %), o‘rmon xo‘jaligida 208,5 mlrd so‘mni (102,4 %), baliqchilik xo‘jaligida 144,8 mlrd so‘mni (109,1 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘shishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi (yanvar-iyun, mlrd so‘m)

	2023- yil	2024- yil	2025- yil
Jami	9 089,5	10 104,5	11 757,6
shu jumladan:			
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar	8 848,7	9 839,6	11 404,2
O‘rmon xo‘jaligi	163,4	158,8	208,5
Baliqchilik xo‘jaligi	77,4	106,1	144,9

2025- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘rish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi.

Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘shish sur‘atlari



Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Ovchilik xo‘jaligi — ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O‘rmon xo‘jaligi – faoliyat turi o‘rmon resurslarini takror ishlab chiqarish va o‘rmon resurslaridan foydalanish, xususan o‘rmonchilik, o‘rmonzorlarni barpo etish va yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlari uchun binokorlik dumaloq yog‘ochlarini yetishtirish, shuningdek, yovvoyi holda o‘sovchi o‘rmon mahsulotlarini yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan soha.

Baliqchilik xo‘jaligi – baliq ovlash va suv bioresurslarini, akvakulturani saqlash, suv bioresurslaridan olinadigan baliq va boshqa mahsulotlarni yetishtirish va sotish bo‘yicha faoliyat turi.

Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

O‘rmon xo‘jaligi


Baliqchilik xo‘jaligi

2025- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 97,0 % i dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 1,8 % i o‘rmon xo‘jaligi va 1,2 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



Viloyat kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining yuqori foiz ulushiga ega tumanlar





2025- yilning yanvar-iyun oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Dehqonchilik. 2025- yilning yanvar-iyunida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2 641,1 mlrd so‘mni yoki 2024- yilning shu davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 103,6 % ni, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida ulushi 23,4 % ni tashkil qildi.

Hosilni yig‘ib olish. Hisobot davrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 478 323 tonna (o‘tgan yilga nisbatan 104,0 %) jami don, 473 628 tonna (104,1 %) boshoqli don, 435 248 tonna (101,8 %) bug‘doy, 2 037 tonna (125,5 %) makkajo‘xori, 13 698 tonna (102,9 %) kartoshka kovlab olindi, 63 874 tonna (102,1 %) sabzavotlar, 10 359 tonna (100,6 %) oziqbop poliz, 18 192 tonna (105,0 %) mevalar va rezavorlar, 750 tonna (107,4 %) uzum yig‘ib olindi.



	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermar xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘shir sur‘ati, % da	tonna	o‘shir sur‘ati, % da	tonna	o‘shir sur‘ati, % da	tonna	o‘shir sur‘ati, % da
Don jami	478 323	104,0	436 328	102,6	8 397	103,3	33 598	127,4
Boshoqli don	473 628	104,1	433 491	102,5	7 017	100,4	33 120	131,3
shundan: bug‘doy	435 248	101,8	405 274	100,4	3 139	104,4	26 835	128,5
makkajo‘xori don uchun	2 037	125,5	1 220	127,9	546	102,4	271	199,3
Kartoshka	13 698	102,9	4 472	99,4	8 877	102,4	349	2,3 m.
Sabzavotlar- jami	63 874	102,1	20 057	101,0	42 336	101,9	1 481	129,6
Poliz – jami	10 359	100,6	5 876	84,8	2 267	102,2	2 216	193,4
Mevalar va rezavorlar- jami	18 192	105,0	4 756	110,3	13 266	102,9	170	134,9
Tokzorlar	750	107,4	180	132,4	570	101,4	-	-



2025- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



**HUDUDLAR BO‘YICHA
DON
YETISHTIRISH**






HUDUDLAR BO'YICHA MAKKAJO'XORI, DON UCHUN YETISHTIRISH



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Makkajo'xori don yetishtirishning eng katta hajmi 1 220 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 59,9 % i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 271 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 13,3 % i qishloq xo'jaliklari tashkilotlarida kuzatildi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 27,7 % i, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,2 % ga o'sish kuzatildi.



HUDUDLAR BO'YICHA KARTOSHKA YETISHTIRISH



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 8,9 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 64,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 349 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan kuzatildi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 0,6 % kamayish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,5 % ga o'sish kuzatildi.



HUDUDLAR BO‘YICHA SABZAVOTLAR YETISHTIRISH



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Savzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 42,3 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 66,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 1,5 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,3 % i qishloq xo‘jaligi korxonalarida kuzatildi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 1,0 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 29,5 % ga o‘shish kuzatildi.

Chorvachilik. Chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yinishiga imkon yaratdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida 8 650,0 mlrd so'mlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 2024- yilning shu davriga nisbatan 102,6 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 76,6 % ni tashkil etdi.

2025- yilning 1-iyul holatiga viloyatdagi yirik shohli qoramollar bosh soni 964,9 mingtani (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,8 %), shu jumladan sigirlar bosh soni 277,8 mingtani (102,7 %), qo'y va echkilar bosh soni 2 498,0 mingtani (104,8 %), otlar bosh soni 32,4 mingtani (104,2 %) va parrandalar bosh soni 4 061,6 mingtani (101,6 %) tashkil qildi.



2025- yil 1-iyul holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	bosh soni	o'sish sur'ati, % da	bosh soni	o'sish sur'ati, % da	bosh soni	o'sish sur'ati, % da	bosh soni	o'sish sur'ati, % da
Yirik shoxli qoramollar	964 925,0	101,8	69 516	110,5	857 361	101,1	38 048	103,2
Sigirlar	277 758	102,7	23 556	114,0	241 946	101,4	12 256	107,7
Qo'y va echkilar	2 498 013	104,8	473 296	105,3	1 554 781	100,2	469 936	123,2
Otlar	32 384	104,2	8 199	106,3	17 738	98,9	6 447	118,5
Parrandalar	4 061 563	101,6	307 603	105,2	1 793 389	100,8	1 960 571	101,8

Umumiy bosh soniga nisbatan dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 88,9 % ni, fermer xo'jaliklarida 7,2 % ni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 87,1 va 8,5 % ni, qo'ylar va echkilar 62,3 va 18,9 % ni, parrandalar 44,1 va 7,6 % ni tashkil qildi.



HUDUDLAR BO'YICHA YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR YETISHTIRISH


Viloyatda yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal (17,5 %), G'allaorol (17,3 %) va Zomin (12,9 %) tumanlari hissasiga, eng kichik ulushlar esa, Jizzax shahri (1,3 %) va Zafarobod tumani (4,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Forish (104,2 %) va Sh.Rashidov (104,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Soni (ming bosh)

Jizzax sh.	13,1
Zafarobod	42,3
Mirzacho'l	43,2
Yangiobod	43,8
Do'stlik	44,2
Arnasoy	48,9
Paxtakor	53,2
Zarbdor	56,7
Forish	70,4
Sh.Rashidov	89,1
Zomin	124,7
G'allaorol	166,7
Baxmal	168,7

Qoramollar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 964,9 mingtaga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 17,0 mingtaga (1,8 %) ko'paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 88,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 10,5 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,1 % ga o'sish kuzatildi.



HUDUDLAR BO‘YICHA SIGIRLAR YETISHTIRISH

Sigirlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal tumaniga (17,5 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (15,2 %) va Zomin (12,5 %) tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, sigirlarning umumiy bosh sonidagi eng kichik ulushlar Jizzax shahri (1,2 %) va Mirzacho‘l tumani (4,0 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024 yilning yanvar-iyuniga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘ati Forish tumani (107,4 %) da qayd etildi.

Soni (ming bosh)

Jizzax sh.	3,3
Mirzacho‘l	11,2
Zafarobod	12,6
Arnasoy	13,2
Do‘stlik	13,5
Paxtakor	14,4
Yangiobod	15,2
Forish	19,6
Zarbdor	22,9
Sh.Rashidov	25,9
Zomin	34,7
G‘allaorol	42,3
Baxmal	48,7

Sigirlar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 277,8 mingtaga etdi.
- sigirlar bosh soni 2024- yilning 1-iyuliga nisbatan 7,2 mingtaga (2,7 %) ko‘paydi.
- sigirlar bosh sonining 87,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida kuzatildi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 14,0 % ga o‘shish kuzatildi.




HUDUDLAR BO'YICHA QO'YLAR VA ECHKILAR YETISHTIRISH

Qo'y va echkilar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumani hissasiga (35,0 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Baxmal (13,2 %) va G'allaorol (13,1 %) tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, qo'y va echkilar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Arnasoy (1,5 %) va Do'stlik (1,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024- yilning yanvar-iyuniga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahri (129,9 %) va Arnasoy tumanida (116,6 %) qayd etildi.

Soni (ming bosh)



Qo'ylar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- q'o'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 498,0 mingtaga etdi.
- q'o'y va echkilar bosh soni 2024- yilning 1-iyuliga nisbatan 114,8 mingtaga (4,8 %) ko'paydi.
- q'o'y va echkilar bosh sonining 62,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 5,3 % ga o'sish kuzatildi.




HUDUDLAR BO'YICHA PARRANDALAR YETISHTIRISH


Parrandalar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G'allaorol tumani hissasiga (37,8 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulushga Sharof Rashidov (11,0 %) va Zafarobod (11,0 %) tumanlari ega bo'ldi.

Shu bilan birga, parrandalar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Yangiobod (1,1 %) va Do'stlik (1,5 %) tumanlarida kuzatildi.

2024- yilning yanvar-iyuniga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Arnasoy tumanida (108,5 %) qayd etildi.



Parrandalar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- Parrandalarning umumiy bosh soni 4 061,6 mingtani tashkil qildi.

- Parrandalar bosh soni 2024- yil 1-iyulga nisbatan 64,7 mingtaga (1,6 %) ko'paydi.

- Parrandalar bosh sonining 48,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo'jaliklarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga o'sish kuzatildi.



HUDUDLAR BO'YICHA OTLAR YETISHTIRISH

Soni (ming bosh)


Otlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumaniga (30,2 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulushga Sharof Rashidov (13,4 %) va Baxmal (11,7 %) tumanlari ega bo'ldi.

Shu bilan birga, otlarning umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Jizzax shahri (0,8 %) va Do'stlik tumanida (1,7 %) kuzatildi.

Kuzatilayotgan davrda, 2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzacho'l (120,8 %) va Do'stlik (116,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Do'stlik	0,3
Jizzax sh.	0,3
Yangiobod	0,5
Paxtakor	0,6
Arnasoy	0,7
Zafarobod	1,8
Mirzacho'l	1,9
Zarbdor	2,7
G'allaorol	2,8
Zomin	2,9
Baxmal	3,8
Sh.Rashidov	4,4
Forish	9,8

Otlar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-iyul holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- Otlarning umumiy bosh soni 32,4 mingtaga etdi.
- Otlar bosh soni 2024- yil 1-iyulga nisbatan 1,3 boshga (4,2 %) ko'paydi.
- Otlar bosh sonining 54,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 6,3 % ga o'sish kuzatildi.



CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli ko'mak ko'rsatib kelinayotganligi chorva mollari va parrandalari bosh to'ldirishga imkon yaratdi.



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 8 650,0 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 % ni tashkil qildi. Jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 76,6 % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		Shu jumladan:					
			Ferma xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘shish sur‘ati, % da	tonna	o‘shish sur‘ati, % da	tonna	o‘shish sur‘ati, % da	tonna	o‘shish sur‘ati, % da
Go‘sh, tirik vaznda, tonna	97 423,0	104,1	2 330,0	111,0	89 938,0	102,7	5 155,0	129,5
Sut, ming tonna	312 087,0	102,7	9 145,0	104,6	299 973,0	102,5	2 969,0	129,4
Tuxum, ming dona	183 625,0	105,9	17 404,0	99,7	78 456,0	100,8	87 765,0	112,4
Qorako‘l teri, dona	3 541,0	107,3	2 386,0	107,6	52,0	104,0	1 103,0	107,0
Ovlangan baliq tonna	5 239,0	109,4	638,0	141,2	737,0	101,5	3 864,0	106,9


2025- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vaznda 97,4 ming tonna go‘sh (2024- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 104,1 % ga), 312,1 ming tonna sut (102,7 %), 183,6 mln. dona tuxum (105,9 %) va 3 541 dona qorako‘l teri (107,3 %) yetishtirilib, 5 239 tonna baliq (109,4 %) ovlandi.




HUDUDLAR BO‘YICHA GO‘SHT YETISHTIRISH

Hajmi (ming tonna)

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



Jami go‘sht yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-iyun oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, go‘sht yetishtirishning eng katta hajmi 89,9 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 92,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Kuzatilgan davrda, go‘sht yetishtirishning eng kam hajmi 2,3 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,4 % i fermer xo‘jaliklarida kuzatildi.


2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-iyunida fermer xo‘jaliklarida 10,9 % ga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 2,7 % ga, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 29,5 % ga o‘shirish kuzatildi.



HUDUDLAR BO'YICHA SUT YETISHTIRISH



Jami sut yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2025- yilning yanvar-iyun oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, sut yetishtirishning eng katta hajmi 300,0 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 96,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Ko'rsatib o'tilgan davrda, sut yetishtirishning eng kam hajmi 3,0 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.


2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-iyunida fermer xo'jaliklarida 4,6 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2,5 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 29,4 % ga o'sish kuzatildi.



HUDUDLAR BO'YICHA TUXUM YETISHTIRISH



Jami tuxum yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-iyun oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 87,8 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 47,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to'g'ri keldi.

Ko'rsatib o'tilgan davrda, tuxum yetishtirishning eng kam hajmi 17,4 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 9,5 % i fermer xo'jalilarida kuzatildi.


2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-iyunida fermer xo'jaliklarida 0,3 % ga kamayish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,8 % ga hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 12,4 % ga o'sish kuzatildi.




HUDUDLAR BO‘YICHA BALIQ YETISHTIRISH

Hajmi (tonna)

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



Jami baliq yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-iyun oylarida baliq yetishtirishning eng katta hajmi 3 864 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 73,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-iyunida fermer xo‘jaliklarida 41,2 % ga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,5 % ga, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 6,9 % ga o‘shish kuzatildi.